Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 811.112.2

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA RASMIY REGISTRNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Mavluda Mukaramovna Kakharova*

✉ mavludakakharova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada nemis va o‘zbek tillaridagi rasmiy registrning leksik-semantik xususiyatlari qiyosiy-funksional jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda “registr” va “uslub” tushunchalari terminologik jihatdan farqlanib, rasmiy kommunikatsiyada til vositalarining tanlanishi kommunikativ vaziyat, institutsional me’yor, adresant va adresat o‘rtasidagi masofa hamda standartlashgan kontekst bilan bog‘liqligi asoslanadi. Nemis tilidagi Amts- und Behördensprache hamda o‘zbek tilidagi rasmiy-idoraviy uslub materiallari asosida standartlashganlik, terminologik to‘yinganlik, hissiy-ekspressiv betaraflik, shaxssizlik va nominallik kabi umumiy belgilar aniqlanib, shu bilan birga, rasmiylikning leksik ifodalanishida ikki tilning tipologik xususiyatlari sababli sezilarli farqlar mavjudligi ko‘rsatiladi. Nemis tilida rasmiylik ko‘pincha kitobiy, terminologik va institutsional leksika hamda uslubiy sinonimlarning rasmiy variantlari orqali, o‘zbek tilida esa arab-fors qatlamiga mansub kitobiy birliklar, terminologik leksika va “ot + yordamchi fe’l” tipidagi analitik konstruksiyalar orqali yuzaga chiqishi dalillanadi.

Kalit so‘zlar

rasmiy registr, rasmiy-idoraviy uslub, leksik-semantik qatlam, funksional stilistika, uslubiy sinonimiya, nemis tili, o‘zbek tili, qiyosiy tahlil.

DOI: 10.5281/zenodo.23278178

Rasmiy kommunikatsiya jamiyatdagi institutsional munosabatlarning muhim til shakllaridan biri bo‘lib, davlat boshqaruvi, qonunchilik, ta’lim, diplomatiya, ilmiy faoliyat va idoraviy munosabatlarda alohida kommunikativ me’yorlarga asoslanadi. Bunday nutqda til birliklari tasodifiy tanlanmaydi; ular aniq maqsad, standartlashgan vaziyat, adresant va adresat o‘rtasidagi ijtimoiy masofa hamda institutsional talablar bilan belgilanadi.

Nemis va o‘zbek tillaridagi rasmiy nutqni qiyosiy o‘rganishda, avvalo, registr va uslub tushunchalarini farqlash muhim. Registr muayyan kommunikativ vaziyat va ijtimoiy sharoitga bog‘liq ravishda shakllanadigan til varianti bo‘lsa, uslub mazkur registr doirasida kommunikativ maqsadga muvofiq til vositalarini tanlash va tashkil etish tizimidir [1].

Nemis tilida rasmiy registr, avvalo, *Amts- und Behördensprache*, huquqiy til, ilmiy nutq va diplomatik kommunikatsiya orqali namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida esa unga funksional uslublar tasnifidagi rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub va diplomatik nutq mos keladi [2].

Registr va uslub bir-biriga yaqin, biroq aynan bir xil tushunchalar emas. Registr tilning muayyan ijtimoiy-kommunikativ vaziyatga mos variantini anglatadi. Rasmiy muhit, ijtimoiy masofa, institutsional aloqa, standartlashgan kommunikatsiya va huquqiy aniqlik rasmiy registrning asosiy ekstralingvistik belgilarini tashkil etadi.

Uslub esa ushbu registr doirasida mavjud til imkoniyatlaridan muayyanlarini tanlash bilan bog‘liq. Demak, rasmiy registr bir xil kommunikativ sharoitni belgilasa, rasmiy uslub mazkur sharoit uchun xos leksik, frazeologik, grammatik va sintaktik vositalarning tanlanishini ifodalaydi.

Nemis va o‘zbek tillaridagi rasmiy registrlar funksional jihatdan bir qator umumiy vazifalarni bajarib, axborotni aniq yetkazish, huquqiy yoki institutsional mazmunni bir ma’noli ifodalash, subyektivlikni kamaytirish, obyektiv va shaxssiz ohang yaratish hamda rasmiy me’yorlarga rioya qilishdir [3].

Biroq ayni kommunikativ vazifa turli tipologik tuzilishga ega tillarda turli lingvistik vositalar orqali amalga oshiriladi.

Nemis funksional stilistikasida rasmiy muloqot uslubi E. Riesel va E. Schendels, W. Fleischer va G. Michel kabi olimlar tomonidan maxsus tadqiq qilingan. Ushbu an’anada funksional uslublar leksik-frazeologik tarkib, kommunikativ vazifa va *Stilfärbung* – uslubiy bo‘yoq tushunchalari bilan izohlanadi [4].

Rasmiy registr uchun quyidagi leksik belgilar xosligini bilish mumkin:

1. Standartlashganlik, ya’ni muayyan vaziyatlarda takror qo‘llanadigan qolip birliklardan foydalanish;
2. Terminologik to‘yinganlik, ya’ni huquqiy, ma’muriy, ilmiy va institutsional terminlarning yuqori faolligi;
3. Hissiy-ekspressiv betaraflik, ya’ni subyektiv baho, emotsional va obrazli birliklarning cheklanishi;
4. Shaxssizlik, ya’ni individning hissiy munosabatidan ko‘ra institutsional pozitsiyaning ustunligi;
5. Nominallik, ya’ni ot va nominal konstruksiyalar ulushining yuqoriligi.

Nemis ma’muriy tilini maxsus tadqiq etgan H. Wagner rasmiy matnlarning o‘ziga xos til qurilishini ko‘rsatgan [5]. Keyinchalik rasmiy tilning tushunarliligi masalasi ham alohida tadqiqot yo‘nalishiga aylandi [6].

O‘zbek tilshunosligida ham rasmiy-idoraviy uslubning muhim belgilari sifatida standart shakllar, terminologiya, klishelashgan birliklar, hissiy-ekspressiv betaraflik va shaxssizlik ko‘rsatiladi [7].

Nemis tilida rasmiy registr, asosan, standart adabiy tilga tayansa-da, unda ixtisoslashgan, kitobiy va institutsional birliklar faol qo‘llanadi. So‘zlashuv tiliga xos ekspressiv birliklar esa cheklanadi.

Rasmiylikni hosil qiluvchi asosiy mexanizmlardan biri uslubiy sinonimlar qatoridan rasmiyroq variantni tanlashdir. Masalan:

kriegen → bekommen → erhalten;
machen → durchführen / vornehmen;
kaufen → erwerben;
essen → verzehren.

Ko‘rinadiki, bu qatorlarda bir xil yoki yaqin denotativ mazmun turli uslubiy darajada ifodalanadi. *Kriegen* ko‘proq so‘zlashuv nutqiga, *bekommen* neytral qatlamga, *erhalten* esa rasmiyroq kommunikativ muhitga mos keladi.

Shu jihatdan rasmiylik so‘zning mutlaq xususiyati emas, balki muayyan sinonimik paradigma ichidagi nisbiy uslubiy qiymat sifatida namoyon bo‘ladi.

Nemis rasmiy nutqida ko‘plab termin va nominal birliklarning mavjudligi ham uning leksik-semantik xususiyatini belgilaydi. Bunday til ayniqsa huquqiy va ma’muriy kommunikatsiyada aniq referensiyani ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbek rasmiy nutqida ham umumxalq leksikasi bilan bir qatorda kitobiy, terminologik va institutsional birliklar faol qo‘llanadi. Bunda arab va fors tillaridan tarixan o‘zlashgan ko‘plab kitobiy birliklar muhim o‘rin tutadi [9].

Masalan:

bermoq → taqdim etmoq;
aytmoq → bayon qilmoq / ma’lum qilmoq;
so‘ramoq → murojaat qilmoq;
kelmoq → tashrif buyurmoq;
bilmoq → xabardor bo‘lmoq;
sotib olmoq → xarid qilmoq.

Mazkur juftliklarda birinchi birliklar ko‘pincha neytral yoki umumiste’mol xarakterida bo‘lsa, ikkinchi birliklar kitobiy, rasmiy yoki institutsional kommunikatsiyaga ko‘proq xosdir.

O‘zbek tilining rasmiy registri uchun ot + yordamchi fe’l modeli ayniqsa xarakterlidir:

amalga oshirmoq;
taqdim etmoq;
bayon qilmoq;
qaror qabul qilmoq;
murojaat qilmoq;
xabardor qilmoq.

Mazkur konstruksiyalar nominallikni kuchaytiradi va rasmiy nutqning standartlashgan xarakterini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, rasmiy registrdagi leksik tanlovning asosiy mexanizmlaridan biri uslubiy sinonimlarning ierarxik tashkil etilishidir.

Nemis tilida:
kriegen – bekommen – erhalten;
machen – durchführen – vornehmen;
anfangen – beginnen.
O‘zbek tilida:
bermoq – topshirmoq – taqdim etmoq;
so‘ramoq – iltimos qilmoq – murojaat qilmoq;
tugatmoq – yakunlamoq – yakuniga yetkazmoq.

Bu qatorlarda rasmiy registr odatda vaziyatga eng mos, semantik jihatdan aniq va institutsional jihatdan neytral birlikni tanlaydi.

Shu sababli “rasmiylik”ni qat’iy ikki qutbli belgi sifatida emas, balki darajalanuvchi stilistik xususiyat sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq.

Rasmiy registrning chegaralari faqat real nutq amaliyotida emas, lug‘atlarda ham mustahkamlanadi.

Nemis leksikografiyasida *gehoben*, *Amtssprache*, *bildungssprachlich* kabi uslubiy belgilar so‘zning kommunikativ qo‘llanish doirasini aniqlashga yordam beradi [10].

O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida esa “kitobiy”, “rasmiy”, “eskirgan”, “so‘zlashuv” kabi uslubiy belgilar orqali leksemaning funksional xususiyatlari ko‘rsatiladi [11].

Demak, rasmiy registrning leksik-semantik chegaralari nafaqat nutqiy amaliyot, balki leksikografik kodifikatsiya orqali ham me’yorlashtiriladi.

O‘tkazilgan qiyosiy tahlil nemis va o‘zbek rasmiy registrlarida bir qator umumiy va farqli xususiyatlarni aniqlash imkonini berdi.

Birinchidan, har ikki tilda rasmiy registr aniqlik, standartlashganlik, obyektivlik, shaxssizlik va institutsional me’yoriylikka intiladi.

Ikkinchidan, rasmiy nutqda ekspressiv, subyektiv va so‘zlashuvga xos birliklar cheklanib, neytral, kitobiy, terminologik va institutsional birliklarga ustuvorlik beriladi.

Uchinchidan, rasmiylik har ikki tilda ham uslubiy sinonimlar qatoridan ma’lum birliklarni tanlash orqali yuzaga chiqadi. Bunda rasmiylik lug‘aviy birlikning mutlaq emas, balki kontekstual va darajalanuvchi xususiyatidir.

To‘rtinchidan, nemis va o‘zbek tillarining tipologik qurilishi leksik-semantik realizatsiyaga bevosita ta’sir qiladi. Nemis tilida kompozitsiya va murakkab terminlar mahsuldor bo‘lsa, o‘zbek tilida analitik birikmalar va “ot + yordamchi fe’l” modellari faol qo‘llanadi.

Beshinchidan, rasmiy nutq yagona monolit tizim emas. Uning huquqiy, idoraviy-ma’muriy, ilmiy va diplomatik subregistrlari mavjud bo‘lib, ular umumiy xususiyatlar bilan birga o‘ziga xos terminologik va pragmatik belgilarni ham namoyon etadi.

Shu asosda rasmiy registrning leksik-semantik tashkilini quyidagi funksional munosabat orqali tavsiflash mumkin:

kommunikativ vaziyat → institutsional maqsad → uslubiy tanlov → leksik birlik → rasmiylik darajasi.

Nemis va o‘zbek tillaridagi rasmiy registrlarning qiyosiy tahlili ularning kommunikativ-pragmatik vazifalari ko‘p jihatdan o‘xshash, biroq leksik va strukturaviy realizatsiyasi tilning tipologik xususiyatlari bilan

belgilanayotganini ko‘rsatdi.

Har ikki tilda rasmiy nutq standartlashganlik, terminologik aniqlik, hissiy-ekspressiv betaraflik, shaxssizlik va nominallik bilan xarakterlanadi. Rasmiylikni yaratishda uslubiy sinonimlar orasidan vaziyatga mos birlikni tanlash muhim rol o‘ynaydi.

Nemis tilida rasmiy registrning leksik-semantik tuzilishida ixtisoslashgan terminologiya, institutsional birliklar, kitobiy-rasmiy leksika va kompozitsiya mahsuldorligi muhim o‘rin egallasa, o‘zbek tilida terminologik va kitobiy qatlam bilan birga arab-fors o‘zlashmalari hamda “ot + yordamchi fe’l” tipidagi analitik konstruksiyalar faol qo‘llanadi.

Shunday qilib, nemis va o‘zbek rasmiy registrlarini qiyoslashda alohida so‘zlarning formal mosligidan ko‘ra, ularning funksional ekvivalentligi, uslubiy qiymati va kommunikativ-pragmatik vazifasini asosiy mezon sifatida olish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv tarjimashunoslik, leksikografiya, funksional stilistika hamda nemis va o‘zbek tillarini o‘qitish amaliyoti uchun ham metodik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Adamzik K. Textlinguistik: Eine einführende Darstellung. – Tübingen: Niemeyer, 2004; Brinker K., Cölfen H., Pappert S. Linguistische Textanalyse: Eine Einführung in Grundbegriffe und Methoden. 8. Aufl. – Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2014.

[2] Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.

[3] Eisenberg P. Grundriss der deutschen Grammatik. Band 2: Der Satz. 4. Aufl. – Stuttgart: Metzler, 2013; Halliday M.A.K. Spoken and Written Language. 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 1989.

[4] Riesel E., Schendels E. Deutsche Stilistik. – Moskau: Hochschule, 1975; Fleischer W., Michel G. Stilistik der deutschen Gegenwartssprache. – Leipzig: Bibliographisches Institut, 1975.

[5] Wagner H. Die deutsche Verwaltungssprache der Gegenwart: Eine Untersuchung der sprachlichen Gestaltung amtlicher Texte. – München: Hueber, 1970.

[6] Langer I., Schulz von Thun F., Tausch R. Sich verständlich ausdrücken. – München: Reinhardt, 1974.

[7] Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.

[8] Dudenredaktion. Duden – Richtiges und gutes Deutsch. 9. Aufl. – Berlin: Bibliographisches Institut, 2016.

[9] Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985.

[10] Dudenredaktion. Duden – Das große Wörterbuch der deutschen Sprache. – Berlin: Bibliographisches Institut, 2012.

[11] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008.